

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

ONA TILI FANIDAN O'QUV DASTURI

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti hamda ona tili fani bo‘yicha malaka talablari asosida tuzilgan bo‘lib, Xalq ta’limi vazirining 2017-yil 3 iyundagi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyatga joriy etish to‘g‘risida”gi 190-tonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-9-sinflari uchun amaliyatga joriy etiladi.

UQTIRISH XATI

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ona tili fanini o‘qitishning maqsadi – o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi – o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon

qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Ona tili fanidan o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi. O‘quv dasturida o‘quvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni hamda tayanch kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Boshlang‘ich ta’limda – o‘quvchilarining savodxonligini ta’minlash, adabiy nutq me’yorlariga og‘zaki va yozma nutqida rioya qilishni shakllantirish;

Umumiy o‘rta ta’limda – ona tili imkoniyatlari asosida ta’lim oluvchida mustaqil va ijodiy fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq muhiti, sharoiti va vaziyatiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon va aniq ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1. Savod o‘rgatish va nutq o‘stirish.
2. Amaliy fonetika va grammatika, imlo va nutq o‘stirish.

Savodga o‘rgatish jarayoni ikki davrni: alifbegacha tayyorlov va alifbe davriga ajratiladi. Tayyorgarlik va alifbe davrida ta’lim savodga o‘rgatishning tahlil-tarkib tovush usulida amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar hisobiga boyitishga alohida e’tibor qaratiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi o‘quvchilarda nutqiy faoliyatning asosiy turlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun ona tili o‘quv fani mazmunini nutq tovushlari, yozma nutqda tovushlarning ifodalanishi, so‘z turkumlari, ularning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi, so‘zlarning morfemik tarkibi va so‘z yasalishi, so‘zlarning leksik-semantik guruhlari, imlo qoidalari va tinish belgilarining ishlatalishiga doir bilimlar tashkil etadi.

5-9-sinflarda ona tili fonetikasi, leksikasi, morfologiya va sintaksisini tizimli va amaliy samarali o‘rganish natijasida ta’lim oluvchiga tilshunoslik fani asoslarini berish emas, balki ayni bir narsa-hodisani atash, fikrni ifodalash uchun ona tilida o‘nlab imkoniyatlar borligini, xilma-xil shakl va ko‘rinishlarga ega bo‘lgan bunday rang-barang imkoniyatlarning har birining o‘z ifoda va ta’sir xususiyatini o‘quvchiga yetkazish, unda mana shu jihatlarni ilg‘ay olish, bunda axborot resurslariga murojaat qilish madaniyatini shakllantirish, har bir shakl va imkoniyatdan o‘z o‘rnida foydalana olish malakalarini rivojlantirishdir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili ta’limida o‘rganilgan o‘quv materiallarning akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida aynan takrorlanmasligi, o‘quvchilarining yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlari, umumiy o‘rta ta’lim tayyorgarligiga mos kelishi hamda grammatik materiallarni asta-sekin, oddiydan murakkabga tomon borish tamoyiliga asoslanishi e’tiborga olingan.

Shuningdek, ona tili chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan

umumta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilardagi qobiliyat va iste'dodni yanada kamol toptirish uchun ixtisoslikka yo'naltirilgan o'quv dasturi kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturiga moslashtirildi. Bunda yillik o'quv soatlari A2 bosqichda 646 soat bo'lsa, A2+ bosqichda esa 986 soatni tashkil etadi.

Buning uchun o'quv dasturida qo'shimcha ikki soat vaqt ajratilgan. Bu ikki soatning bir soati (34 soat) oddiy sinflar (A2) uchun tuzilgan o'quv dasturi mavzulari tarkibida berildi, ikkinchi soati esa, "Nutq madaniyati" yondosh dasturi uchun ajratildi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Bunga ko'ra, ona tili fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilib boriladi.

Kommunikativ kompetensiya:

A2

– o'rganilgan ifoda vositalari asosida o'zaro samarali muloqotga kirisha olish, muloqotda nutqiy muhitga moslasha olish.

A2+

–muloqotda nutqiy muhit hamda sharoitga moslasha olish, muomala madaniyatiga amal qilish.

Axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi:

A2

– mediamanbalar (radio, televizor, internet va boshqalar)dan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, ularning xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalarini egallash .

A2+

– mediamanbalar (radio, televizor, internet va boshqalar)dan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishslash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, mediamadaniyatga ega bo'lish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A2

– doimiy ravishda o'zini o'zi mustaqil va ijodiy rivojlantirish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, mustaqil qaror qabul qila olish.

A2+

– doimiy ravishda hayotiy tajribasini mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, mustaqil qaror qabul qila olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A2

– sinfda, maktabda, oilada, mahallada va jamiyatda o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish, o'zining burchini bilish, unga rioya qilish.

A2+

- mahallada va jamiyatda o‘tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish, o‘zining burchini bilish, unga rioya qilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:**A2**

- vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy asarlarni tushunish, nutqiy me’yorlarga rioya qilish va sog‘lom turmush tarziga amal qilish.

A2+

- umuminsoniy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, sog‘lom turmush tarziga amal qilish, san’at asarlarni tushunish va nutq madaniyatiga ega bo‘lish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**A2**

- kundalik faoliyatda turli jadvalli ma’lumotlarni o‘qiy olish, aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy va iqtisodiy rejalarini tuza olish,

A2+

- kundalik faoliyatda jadvalli ma’lumotlarni o‘qiy olish, aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, kasbiy rejalarini tuza olish,

O‘quv dasturi mazmunida aks etgan grammatik mavzularni yoritishda o‘quv rejada keltirilgan “Hayot xavfsizligi asoslari”, “Tejamkorlik saboqlari” va “Iqtisodiy bilim asoslari” kurslarining mazmuni singdirilishi kerak.

Me’yoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

I. TK-tayanch kompetensiya

1. TK1-kommunikativ kompetensiya
2. TK2-axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi
3. TK3-o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. TK5-milliy va umummadaniy kompetensiya
6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1. FK1- nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish)
2. FK2- lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid):

5-SINF
(204 soat, A2+: 238 soat)
(haftasiga 6 soat, A2+:7 soat)

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A2

- darslik materiallari va undan tashqari manbalar (televizor, radio)dan ma’lumotlarni topa olish.

A2+

- mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi :

A2

- mustaqil o‘qib-o‘rganish, bilimini, ko‘nikmalarini mustaqil ravishda muntazam oshirib borish.

A2+

- o‘z xatti-harakatini baholay olish

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A2

- adabiy til va nutq me’yorlariga amal qilish, badiiy asarlarni tushunish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

A2+

- madaniy me’yorlarga amal qilish, san’at asarlarini tushunish

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A2

- dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish, turli vaziyatlarda o‘zini tuta olish.

A2+

- har bir voqeа-hodisalarga munosabat bildira olish; ularda faol ishtirok eta olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A2

- shaxsiy rejalarini tuza olish, turli jadvalli ma’lumotlarni o‘qiy olish, hisob-kitob bilan ish yuritish.

A2+

- kundalik turmush tarzi bilan bog‘liq rejalarini tuza olish.

**1-BO‘LIM. KIRISH. FONETIKA, IMLO HAMDA LEKSIKA
BO‘YICHA TAKRORLASH**
(7 soat, A2+: 2 soat)

1-mavzu. Tilning ijtimoiy ahamiyati. (1 soat).

2-mavzu. O‘zbek tili - davlat tili. (1 soat (A2+: 2 soat)).

Takrorlash.

Ayrim unlilarning yozilishi. Ayrim undoshlarning yozilishi. Bir tovush bilan farq qiladigan so‘zlar imlosi va talaffuzi (**3 soat**)

Shakldosh so‘zlar. Ma’nodosh so‘zlar. Zid ma’noli so‘zlar (**2 soat, A2+3 soat**).

Nazorat ishi. (1 soat)

2-BO‘LIM. MORFOLOGIYA

(17 soat, A2+:2 soat)

3-4-mavzular. So‘z turkumlari, so‘zlarni turkumlarga ajratishning muhim belgilari. Mustaqil so‘z turkumlari. (**2 soat**)

5-6-mavzular. Fe’l so‘z turkumi. Fe’l zamонлари. (**2 soat**)

7-8-mavzular. Ot so‘z turkumi. Egalik va kelishik qo‘shimchalari (**2 soat**)

9-10-mavzular Sifat, son so‘z turkumi va ularning imlosi. Olmosh so‘z turkumi. (**2 soat**)

11-12-mavzular. Yordamchi so‘zlar. Bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama. (**3 soat**)

13-14-mavzular. Undov va taqlid so‘zlar. Qo‘shma so‘zlarning tuzilishi. Qo‘shma so‘zlar imlosi. (**2 soat, A2+ 4 soat**)

15-16-mavzular. Juft so‘zlar va ularning imlosi. Takroriy so‘zlar va ularning imlosi. (**2 soat**)

Mustahkamlash. Mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari, undov va taqlid so‘zlar. So‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlari yuzasidan tahlil, matn va lug‘atlar bilan ishslash. (**2 soat**)

Nazorat ishi va tahlil. (3 soat)

3-BO‘LIM. SINTAKSIS VA PUNKTUATSIYA. MATN

(20 soat, A2+: 3 soat)

17-18-mavzular. Gap. Gapda so‘zlarning bog‘lanishi. (**2 soat**)

19-20-mavzular. So‘z birikmasi. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari. (**2 soat**)

21-22-mavzular. Gap bo‘laklari. Kesim. (**2 soat**)

23-24-mavzular. Ega. Hol. To‘ldiruvchi bo‘laklari. (**2 soat**)

25-26-mavzular. Aniqlovchi. Undalma va unda tinish belgisining ishlatilishi. (**2 soat**)

27-mavzu. Kirish so‘z va unda tinish belgisining ishlatilishi (**1 soat**)

Mustahkamlash. Gapda so‘zlarning bog‘lanishi, gap bo‘laklari, undalma, kirish so‘z va unda tinish belgilarining ishlatilishi yuzasidan tahlil, matn va lug‘atlar bilan ishslash (**2 soat**)

Nazorat ishi va tahlil. (2 soat)

28-29-mavzular. Sodda va qo‘shma gaplar. Ko‘chirma gaplar. Ko‘chirma gaplar va ularda tinish belgilarining ishlatilishi. (**2 soat**)

30-mavzu. Dialog va ularda tinish belgilarining ishlatilishi. (**1 soat**)

31-32-mavzular. Matn. Matn mazmunini qayta hikoya qilish (**1 soat, A2+;3 soat**)

Matnga sarlavha qo‘yish (**1 soat**)

Mustahkamlash. Matn va unga sarlavha qo‘yish yuzasidan tahlil. (**2 soat, A2+;3 soat**)

O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish):

A2

– tinglangan matn, mashq va topshiriqlardagi yoki diktant matnini tushuna oladi;

– mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariiga rioya qilgan holda o‘qiy oladi;

– fikrini to‘g‘ri bayon qila oladi, urg‘uni to‘g‘ri qo‘ya oladi;

– o‘rganilgan mavzular doirasida lug‘at, saylanma, ta’kidiy diktantlarni hamda 85-95 ta so‘zdan iborat bo‘lgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalarga amal qiladi. 8-10 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi.

A2+

– tinglangan matn, mashq va topshiriqlardagi yoki diktant matnidagi asosiy axborotlarni tushuna oladi;

– mavzuga oid mashq va topshiriqlarni ma’nosini tushunib, orfoepiya qoidalariiga rioya qilgan holda o‘qiy oladi;

– fikrini to‘g‘ri bayon qila oladi, urg‘uni to‘g‘ri qo‘ya oladi;

– o‘rganilgan mavzular doirasida lug‘at, saylanma, ta’kidiy diktantlarni hamda 96-120 ta so‘zdan iborat bo‘lgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalarga amal qiladi. 11-15 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi.

Lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatikaga oid):

A2

– yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtiradi. Gapda so‘zlarning bog‘lanishi, so‘z birikmasi, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, gap bo‘laklari, undalma, kirish so‘z, sodda va qo‘shma gaplar, ko‘chirma gaplar va dialoglarni farqlaydi, izohlay oladi;

– so‘zlarni morfologik tahlil qila oladi. O‘rganilgan ifoda vositalarini og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llaydi.

A2+

– yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtiradi. Gapda so‘zlarning bog‘lanishi, so‘z birikmasi, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, gap bo‘laklari, undalma, kirish so‘z, sodda va qo‘shma gaplar, ko‘chirma gaplar va dialoglarni farqlaydi, izohlay oladi;

– so‘zlarni morfologik tahlil qila oladi. O‘rganilgan ifoda vositalarini og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llaydi.

Nazorat ishi va tahlil. (2 soat)

4-BO‘LIM. FONETIKA VA IMLO **(33 soat, A2+: 4 soat)**

33- 34-mavzular. Og‘zaki va yozma nutq tushunchalari. **(2 soat)**

35-36-mavzular. Talaffuz va imlo me’yorlari (*yozilishi, fonetik asos, morfologik asos va tarixiy asosga ega bo‘lgan so‘zlar*). **(3 soat)**

37-38-mavzular. Nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasi. Ayrim unlilar talaffuzi va imlosi. **U** va **I** unlilarining talaffuzi va imlosi. **(2 soat)**

39-40-mavzular. **A** va **O**, **O‘** unlilarining talaffuzi va imlosi. Qator kelgan unlilar talaffuzi va imlosi. **(2 soat)**

Mustahkamlash. Talaffuz va imlo me’yorlari, nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasi yuzasidan tahlil. Matn va lug‘at bilan ishlash. **(2 soat, A2+: 4 soat)**

Nazorat ishi. (1 soat)

41-42-mavzular. Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi. **Gg-Kk** undoshlari talaffuzi va imlosi. **(2 soat)**

43-44-mavzular. **Qq** undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘sishimchalarining qo‘shilishi va ularning imlosi. **G‘** undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘sishimchalarining qo‘shilishi va ularning imlosi. **(2 soat)**

45-46-mavzular. **B**, **m** undoshlaridan oldin kelgan **n** undoshining talaffuzi va imlosi. **Jj (dj)** undoshining talaffuzi va imlosi. **X x** va **H h** undoshlarining talaffuzi va imlosi. **(3 soat)**

47-48-mavzular. **Dd** va **Tt** undoshining talaffuzi va imlosi. **F f** undoshining talaffuzi va imlosi. **(2 soat)**

49-50-mavzular. **Ng ng** harfining talaffuzi va vazifasi. **Sh sh** va **Ch ch** harflari talaffuzi hamda ularning vazifalari. **(3 soat)**

Mustahkamlash. Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi. Harf birikmalarining vazifalari yuzasidan tahlil. Lug‘at ustida ishlash. **(2 soat)**

Nazorat ishi. (2 soat)

51-52-mavzular. Qo‘sishimchalarining orttirilishi va tushib qolishi, almashishi. Tutuq belgisining ishlatilishi. **(2 soat)**

53-54-mavzular. Tovushlarning orttirilishi va tushib qolishi, almashishi. Tutuq belgisining ishlatilishi. **(2 soat)**

55-56-mavzular. Bo‘g‘in va uning turlari. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari. **(2 soat)**

57-58-mavzular. Urg‘u va uning turlari. So‘z urg‘usi. **(2 soat, A2+:4coat)**

Mustahkamlash. Qo‘sishimchalarining orttirilishi va tushib qolishi, almashishi; tutuq belgisining ishlatilishi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari, urg‘uning qo‘yilishi yuzasidan tahlil. Matn va lug‘at bilan ishlash. **(2 soat)**

Nazorat ishi va tahlil. (2 soat)

5-BO'LIM. TAKRORLASH **(3 soat, A2+:1 coat)**

Ayrim unlilar. Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi. Qo'sh va qator undoshlar talaffuzi hamda imlosi. Matn va lug'atlar bilan ishlash. **(2 soat, A2+:3 soat)**

Bo'g'in ko'chirish qoidalari. Tovushlarning orttirilishi, tushib qolishi, almashishi. **(1 soat)**

6-BO'LIM. LEKSIKOLOGIYA **(72 soat, A2+:16 soat)**

59-61-mavzular. Leksika. O'zbek tili lug'at tarkibi.
So'z – tilning asosiy birligi. **(3 soat)**

O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish):

A2

- tinglangan mashq va topshiriqlardagi yoki diktant matnidagi asosiy axborotlarni tushuna oladi;
- mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariiga rioya qilgan holda o'qiy oladi;
- fikrini to'g'ri bayon qila oladi;
- 85-95 ta so'zdan iborat bo'lgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalarga amal qiladi. 8-10 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi.

A2+

- tinglangan mashq va topshiriqlardagi yoki diktant matnidagi asosiy axborotlarni tushuna oladi;
- mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariiga rioya qilgan holda o'qiy oladi;
- fikrini to'g'ri bayon qila oladi;
- 96-120 ta so'zdan iborat bo'lgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalarga amal qiladi. 11-15 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi.

Lingvistik kompetensiya(fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatikaga oid):

A2

- talaffuz va imlo me'yorlari, nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasini izohlay oladi, so'zlarni fonetik tahlil qila oladi.

A2+

- talaffuz va imlo me'yorlari, nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasini izohlay oladi, so'zlarni fonetik tahlil qila oladi.

Nazorat ishi (1 soat).

62-63-mavzular. So‘zning tovush tomoni. (**2 soat**)

64-65-mavzular. So‘z ma’nosи. Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar. So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari. (**2 soat, A2+4soat**)

Nazorat ishi. (**2 soat**)

66-67-mavzular. Ma’no ko‘chish yo‘llari. O‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishi. (**2 soat**)

68-70-mavzular. Aloqadorlik asosida ma’no ko‘chish. Vazifadoshlik asosida ma’no ko‘chishi. Butunning qismni, qismning butunni ifodalashi. (**3 soat, A2+:4coat**)

Mustahkamlash. Matnda ko‘p ma’noli so‘zlardan foydalanish. (**1 soat, A2+2coat**)

Nazorat ishi. (**1 soat**)

71-72-mavzular. So‘zlearning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari. Shakldosh so‘zlar. (**2 soat**)

73-74-mavzular. Nutqda shakldosh so‘zlardan foydalanish. Nutqda uyadosh so‘zlardan foydalanish. (**2 soat**)

75-76-mavzular. Paronim so‘zlar va ulardan foydalanish. Matnda ma’nodosh so‘zlearning qo‘llanishi. (**2 soat**)

Mustahkamlash. So‘zlearning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari yuzasidan tahlil. Lug‘at ustida ishslash. (**1 soat**)

Nazorat ishi va tahlil. (**2 soat**)

77-79-mavzular. Zid ma’noli so‘zlar va ularning nutqda qo‘llanilishi. Eskirgan so‘zlar va ularning ma’nolari. (**3 soat**)

80-81-mavzular. Eskirgan so‘zlearning tarixiy asarlarda qo‘llanilishi. (**2 soat**)

82-83-mavzular. O‘zlashma so‘zlar. Yevropa tillaridan olingan so‘zlar. Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar. (**2 soat, A2+:4 soat**)

Mustahkamlash. Zid ma’noli so‘zlar, eskirgan so‘zlar va ularning ma’nolari, o‘zlashma so‘zlar, yevropa tillaridan olingan so‘zlar, yangi paydo bo‘lgan so‘zlar yuzasidan tahlil. Matn va lug‘at bilan ishslash. (**2 soat**)

Nazorat ishi va tahlil. (**2 soat**)

84-86-mavzular. Terminlar. Ilmiy terminlar. Kasbiy terminlar. Matematika, informatika fanlariga oid terminlar. Tabiiy fanlarga oid terminlar, ularning imlosi. (**3 soat, A2+:4 soat**)

87-89-mavzular. Ijtimoiy fanlar terminlari va ularning imlosi. Jismoniy madaniyat va mehnat bilan bog‘liq terminlar. (**3 soat**)

90-92-mavzular. Rasm va chizmachilik terminlari. Musiqaga doir terminlar va ularni nutqda qo‘llash. (**3 soat**)

Mustahkamlash. Kasbiy va ilmiy atamalar yuzasidan lug‘at bilan ishslash. (**1 soat**).

Nazorat ishi. (**1 soat**)

93-94-mavzular. Ma’naviyat va ma’rifat bilan bog‘liq so‘zlar. Madaniyat bilan bog‘liq so‘zlar. (**2 soat, A2+4 soat**)

95-96-mavzular. San’at bilan bog‘liq so‘zlar. Tibbiyot bilan bog‘liq so‘zlar. (**2 soat**)

97-98-mavzular. Qavm-qarindoshlik bilan bog‘liq so‘zlar va ularning ma’nosini. (**2 soat**)

Mustahkamlash. Matn va lug‘at bilan ishslash. (**2 soat, A2+:4 soat**)

99-100-mavzular. Shevaga xos so‘zlar. Adabiy nutqning rivojida shevalarning tutgan o‘rni. (**2 soat**)

101-102-mavzular. Nutqda shevaga xos so‘zlardan foydalanish. Til sofligi tushunchasi. (**2 soat**)

103-105-mavzular. Nutq turlari. Monologik nutq. Dialogik nutq. Lug‘atshunoslik. (**3 soat**)

O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish):

A2

- tinglangan matndan asosiy axborotlarni tushuna oladi;
- mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o‘qiy oladi;
 - fikrini to‘g‘ri bayon qila oladi, urg‘uni to‘g‘ri qo‘ya oladi;
 - o‘rganilgan mavzular doirasida ijodiy, saylanma diktantlarni hamda 85-95 ta so‘zdan iborat bo‘lgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalariga amal qiladi. 8-10 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi.

A2+

- tinglangan matndan asosiy axborotlarni tushuna oladi;
- mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o‘qiy oladi;
 - fikrini to‘g‘ri bayon qila oladi, urg‘uni to‘g‘ri qo‘ya oladi;
 - o‘rganilgan mavzular doirasida ijodiy, saylanma diktantlarni hamda 96-120 ta so‘zdan iborat bo‘lgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalariga amal qiladi. 11-15 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi.

Lingvistik kompetensiya(fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatikaga oid):

A2

- yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtiradi, matndagi so‘zlar ma’nosini izohlaydi va leksik tahlil qila oladi.
- o‘rganilgan ifoda vositalarini og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llaydi.

A2+

- yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtiradi, matndagi so‘zlar ma’nosini izohlaydi va leksik tahlil qila oladi.
- o‘rganilgan ifoda vositalarini og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llaydi.

Nazorat ishi va tahlil. (3 soat**)**

106-mavzu. Lug‘atlardan foydalanish. (**1 soat**)

Mustahkamlash. Izohli lug‘atlardan foydalanish. Imlo lug‘atlaridan foydalanish. (**2 soat, A2+:4 soat**). Talaffuz (orfoepik) lug‘atlaridan foydalanish. Qomusiy lug‘atlardan foydalanish. (**2 soat**)

Nazorat ishi va tahlil. (3 soat**)**

107-109-mavzular. Iboralar. Nutqda iboralardan foydalanish. (**1 soat**)
Iboralarning qo'shma so'zdan farqi. (**2 soat, A2+:4soat**)

110-111-mavzular. Iboralarning so'z birikmalaridan farqi. Tasviriy ifoda. (**2 soat**)

112-114-mavzular. Nutqda maqol va hikmatli so'zlardan foydalanish (**3 soat, A2+:4 soat**)

115-116-mavzular. Hikmatli so'zlar ustida ishlash. (**2 soat**)

117-118-mavzular. Ismlar ma'nosi. Joy nomlari tarixi. (**2 soat**)

Mustahkamlash. Matn va lug'at bilan ishlash. (**2 soat**)

Nazorat ishi va tahlil. (**2 soat**)

7-BO'LIM. O'QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH. MATN USTIDA ISHLASH (22 soat, A2+:6 soat)

Takrorlash. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. Gap bo'laklari.

(2 soat)

Mustaqil so'zlar. Yordamchi so'zlar. (**2 soat**)

Unli tovushlar. Undosh tovushlar. (**2 soat**)

Bo'g'in va urg'u. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari. (**2 soat, A2+:5 soat**)

Nazorat ishi. (**3 soat**)

Shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli so'zlar. Eskirgan va yangi so'zlar, iboralar va tasviriy ifodalar. (**2 soat**)

Lug'atshunoslik. (**2 soat**)

Atamalar, shevaga xos so'zlar, olinma so'zlar. (**2 soat**)

Ma'no ko'chish yo'llari va ulardan foydalanish. (**2 soat**)

119-120-mavzular. Matn. Rasmga qarab savollar yordamida matn tuzish. Matn asosida bayon yozish. (**2 soat, A2+:5 soat**)

121-mavzu. Ish qog'ozlari (xat, tabriknoma, e'lon) ustida ishlash. Asosiy atamalar ustida ishlash. (**2 soat**)

O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish):

A2

– mashq va topshiriqlar yoki diktant matnidagi asosiy axborotlarni tushuna oladi;

– mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariiga rioya qilgan holda o'qiy oladi;

– fikrini to'g'ri bayon qila oladi, urg'uni to'g'ri qo'ya oladi;

– o'r ganilgan mavzular doirasida saylanma, ijodiy diktantlarni hamda 85-95 ta so'zdan iborat bo'lgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalarga amal qiladi. 8-10 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi. Ish qog'ozlarini (xat, tabriknoma, e'lon) yoza oladi.

A2+

- mashq va topshiriqlar yoki diktant matnidagi asosiy axborotlarni tushuna oladi;
- mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariiga rioya qilgan holda o‘qiy oladi;
- fikrini to‘g‘ri, ravon, qisqa bayon qila oladi, urg‘uni to‘g‘ri qo‘ya oladi;
- o‘rganilgan mavzular doirasida saylanma, ijodiy diktantlarni hamda 96-120 ta so‘zdan iborat bo‘lgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalarga amal qiladi. 11-15 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi. Ish qog‘ozlarini (xat, tabriknoma, e’lon) yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya(fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatikaga oid):

A2

- talaffuz va imlo me’yorlari, nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasini izohlay oladi. Yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtiradi. Gapda so‘zlearning bog‘lanishi, so‘z birikmasi, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, gap bo‘laklari, undalma, kirish so‘z, sodda va qo‘shma gaplar, ko‘chirma gaplar va dialoglarni farqlaydi, izohlay oladi;

– so‘zlarni fonetik tahlil qila oladi;

- matndagi so‘zlar ma’nosini izohlaydi va leksik, morfologik tahlil qila oladi. O‘rganilgan ifoda vositalarini og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llaydi.

A2+

- talaffuz va imlo me’yorlari, nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasini izohlay oladi. Yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtiradi. Gapda so‘zlearning bog‘lanishi, so‘z birikmasi, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, gap bo‘laklari, undalma, kirish so‘z, sodda va qo‘shma gaplar, ko‘chirma gaplar va dialoglarni farqlaydi, izohlay oladi;

- so‘zlarni fonetik tahlil qila oladi; matndagi so‘zlar ma’nosini izohlaydi va leksik, morfologik tahlil qila oladi. O‘rganilgan ifoda vositalarini og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llaydi.

Nazorat ishi. (2 soat)

Mavzularni o‘rganish uchun - 121 soat A2+: 141 soat

Takrorlash uchun – 25 soat, A2+: 31 soat

Mustahkamlash uchun - 25 soat, A2+: 33 soat

Nazorat ishlari uchun - 33 soat, A2+: 33 soat

Jami: 204 soat, A2+: 238 soat